



**ISSUES OF IMPROVING NATIONAL LEGISLATION IN ENHANCING YOUTH
LEGAL AWARENESS AND CULTURE
(BASED ON THE RESULTS OF SOCIOLOGICAL SURVEYS)**

Umidbek Zamonbekov

Independent Researcher at the Public Safety University

Senior Lecturer at the Tashkent Regional Training Center of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

e-mail: umidbek.zamonbekov94@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: legal awareness, legal culture, family, upbringing, social environment, youth education, importance of family, “street” environment, development, sociological survey.

Received: 05.05.26

Accepted: 06.05.26

Published: 07.05.26

Abstract: This article presents analyses based on the results of surveys conducted among military personnel (employees) of the National Guard and youth in penitentiary institutions. The findings were comprehensively examined, and factors negatively affecting public safety, as well as their underlying causes, were substantiated. The role of family and “street” upbringing in this context is highlighted. Furthermore, practical proposals and recommendations have been developed to address gaps in national legislation in order to enhance youth legal awareness and culture.

**YOSHLAR HUQUQIY ONGI VA MADANIYATINI OSHIRISHDA MILLIY
QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI (SOTSIOLOGIK
SO‘ROVLAR NATIJASIGA ASOSAN)**

Umidbek Zamonbekov

O‘zbekiston Respublikasi IIV Toshkent Mintaqaviy o‘quv markazi katta o‘qituvchisi

Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

e-mail: umidbek.zamonbekov94@mail.ru

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, oila, tarbiya, ijtimoiy muxit,

Annotatsiya: Mazkur maqolada Milliy gvardiya harbiy xizmatchi (xodimlari) va jazoni ijro etish muassalaridagi yoshlar bilan

yoshlar tarbiyasi, oilaning ahamiyati, “ko‘cha” muxiti, yuksaltirish, sotsiologik so‘rovnoma.

o‘tkazilgan so‘rov natijalari asosida taxlillar olib borilgan, taxlil natijalari har tomonlama o‘rganilib, jamoat xavfsizligini ta‘minlashga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi xolatlar va ularning kelib chiqish sabablari asoslantirildi, bu borada orada oila va “ko‘cha”da olingan tarbiyaning ahamiyati yoritilgan, yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda qonunchiligimizda mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА В ПОВЫШЕНИИ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ И
КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ (НА ОСНОВЕ РЕЗУЛЬТАТОВ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ
ОПРОСОВ)**

Умидбек Замонбеков

Старший преподаватель

Ташкентского регионального учебного центра МВД Республики Узбекистан

независимый исследователь Университета общественной безопасности

e-mail: umidbek.zamonbekov94@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: правовое сознание, правовая культура, семья, воспитание, социальная среда, воспитание молодежи, значение семьи, «уличная» среда, повышение, социологический опрос.

Аннотация: В данной статье проведён анализ на основе результатов опросов, проведённых среди военнослужащих (сотрудников) Национальной гвардии и молодежи в учреждениях исполнения наказаний. Результаты анализа всесторонне изучены, обоснованы факторы, негативно влияющие на обеспечение общественной безопасности, а также причины их возникновения. Освещена роль воспитания в семье и на «улице» в данном процессе. Кроме того, разработаны практические предложения и рекомендации по устранению пробелов в национальном законодательстве с целью повышения правового сознания и культуры молодежи.

Kirish. Yangi O‘zbekistonimizning ertangi egalari bo‘lmish yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. Fuqarolarning qonunlarga rioya qilish va huquqiy munosabatlarda faol ishtirok etish qobiliyati jamiyatda huquqiy tartibotni

mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, huquqiy ta'limni takomillashtirish, keng jamoatchilikni qonun hujjatlari bilan tanishtirish, profilaktik tadbirlar o'tkazish va huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish zarur va bu yo'nalish o'zining dolzarbligini hech qachon yo'qotmaydi. Amaldagi qonunchilikni zamonaviy talablarga moslashtirish, profilaktika va jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan yangi huquqiy mexanizmlarni joriy etish qonun ustuvorligini ta'minlashda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. 1994 yil 13 iyunda qabul qilingan "Yoshlarning huquqiy ta'limini takomillashtirishning Kompleks dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida yoshlar huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish chora-tadbirlari belgilab qo'yildi. Voyaga yetmagan yoshlarimizning huquq haqidagi bilimlarini kengaytirish, huquqqa nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, huquqiy madaniyatni oshirishda, huquqiy tarbiyaning aynan ijtimoiy-huquqiy asoslariga, shaxs huquqiy ijtimoiylashuv jarayonining dinamikasiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shaxsning ijtimoiylashuvidagi muhim jarayonlardan biri sifatida uning og'ish bosqichi, ya'ni shaxs xulq-atvorida muayyan salbiy illatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq jarayon alohida tadqiqot obektini tashkil etadi. To'g'rirog'i, ushbu holat aynan biz tadqiq etayotgan shaxsning huquqbuzarlik sodir etishi bilan bog'liq ijtimoiylashuv jarayonini qamrab oladi.

Voyaga yetmaganlarning ongi va xulq-atvoridagi deviantlikning eng muhim sabablari qatoriga, fikrimizcha avvalo, har biri o'z xususiyatlari va qiziqishlariga ega bo'lgan alohida ijtimoiy-demografik guruh hisoblanuvchi avlodlar o'rtasidagi ob'ektiv ziddiyatlarni kiritish mumkin. Bunday ziddiyatlar qatoriga, qoida bo'yicha, mehnat va ijtimoiy xizmatlar bozoridagi raqobatni, katta yoshdagilarning konservatizmi va yoshlarning novatorlik intilishlarini, ba'zilarida g'amxo'rlik qilishga moyillikni va boshqalarda qaram bo'lmaslikka bo'lgan intilish kabilarni kiritish mumkin. Voyaga yetmaganlar xulq-atvorining yuqori deviantligini keltirib chiqaruvchi muhim sabablarga, bizning fikrimizcha, voyaga yetmagan avlodning fiziologik xususiyatlari: hissiy ta'sirchanlik, o'zini tutib turishni eplay olmaslik, hayotiy tajriba yetishmagan holda, faol harakatlanishga intilish kabi xususiyatlarni kiritish mumkin. Ijtimoiy devyatsiya muammosi shu darajada jiddiyki, u bilan nafaqat yetakchi olimlar, balki shu bilan birga davlat hamjamiyatlari ham shug'ullanadilar. Huquqiy muhit subyektlar o'rtasida yuzaga keluvchi o'ziga xos aloqalar va munosabatlar tizimi bilan tavsiflanadi. Ularning negizida huquqiy qoidalar doirasida amalga oshiriladigan huquqiy xulq-atvor yotadi. Huquqiy muhitning o'ziga xosligi unga taalluqli maxsus qadriyatlar, o'z-o'zini tartibga solishning maxsus usuli va huquqiy muhitdagi ijtimoiy subyektlar

o‘zaro ta’siri ustidan davlat-huquqiy nazorat vositalarining mavjudligi va harakati orqali ifodalanadi.

Bizningcha, huquqiy muhit – bu huquqiy tartibga solish sohasida ijtimoiy faol subektlar tomonidan amalga oshirish natijasida jamiyatda yuzaga keluvchi huquqiy aloqalar va munosabatlar majmuida ifodalanadigan, huquq harakati sohasida subektning borlig‘ini belgilaydigan, subektni qurshab turgan, bevosita unga yaqin bo‘lgan hayotiy makondir. Shu tariqa, huquqiy muhit jamiyat tuzilmasida makro va mikro muhitni bog‘lab turuvchi unsur, bu tizim tavsifining asosi hisoblanadi. Bu huquqiy muhitni tushunishdagi eng zarur va muhim jihatdir, chunki huquqiy muhit aynan fuqarolarning o‘zaro ta’siri jarayonida huquqiy qoidalarni tatbiq etishda, ularning huquqiy sohadagi faoliyatida va turmush tarzida namoyon bo‘ladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, jinoyatchilikning sodir etilishiga yoshlardagi salbiy xulq-atvor turtki beradi. Oiladagi noto‘g‘ri tarbiya asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Bunday oilalarda ota-ona bilan farzand o‘rtasidagi munosabatlarning yaxshi emasligi ko‘pincha nizolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Misol uchun, muqaddam sudlangan 1999 y.t. D. o‘zining uyida 1970 y.t. B. bilan o‘zaro o‘rtasida kelib chiqqan nizo oqibatida otasiga “menga aql o‘rgatmang” deb gap qaytarib, otasiga jismoniy kuch ishlatib, otasining ko‘krak qismiga pichoq bilan urib, hayot va sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan og‘ir shikast yetkazgan . O‘z navbatida, ushbu jinoyatchilikning kelib chiqishiga asosiy omil sifatida oilada yoshlar tarbiyasida yo‘l qo‘yilgan xatolik deyish mumkin. Bu borada A. Avloniy ta’kidlaganidek: “Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir” .

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev bu borada shunday deydi: “Biz bir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz lozim: ota-ona, jamiyat e’tiboridan chetdan qolgan bola oilaga quvonch va foyda o‘rniga faqat tashvish keltiradi. Shu bois bola tarbiyasi, yoshlar bilan ishlash biz uchun eng muhim va dolzarb vazifa bo‘lib qolishi shart” . M.X.Fayzieva “agar oilada oilaviy munosabatlar ijobiy bo‘lmasa yoki yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa unda turli muammo va nizolar vujudga keladi” , deb yozadi.

Tadqiqot jarayonida jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o‘tayotgan o‘n sakkiz yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan o‘g‘il va qiz bolalarga “Qaysi salbiy ta’sir etuvchi omillar yoshlar jinoyatchiligini keltirib chiqarmoqda”? degan savol bilan murojaat etganimizda ularning 51,8 foizi oilalardagi nosog‘lom muhit sabab bo‘layotganligini, 32,2 foizi yoshlarda huquqiy ongning pastligini, 16 foizi yoshlar ongiga ta’sir etuvchi ma’naviy omillar mavjudligini ta’kidlashgan. Shuningdek, sud-tergov materiallari tahlil qilinganida, yoshlar jinoyatlarning har uchinchisiga oiladagi nosog‘lom muhit sabab bo‘lganligini kuzatish mumkin . Chunki oila

yoshlarning ilk shakllanish o'chog'idir. Zero, uning dunyoqarashi, ruhiy shakllanishi aynan oiladagi sharoit asosida shakllanadi. Yoshlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, jinoyatchilik yo'liga kirgan 38 foiz yoshlarning oilaviy sharoitlarida ota-onalarning muntazam ichkilikbozlikka berilganligi, rahm-shafqatsizligi, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning axloqan buzuqligi kabi illatlarni uchratish mumkin.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, jinoyatchilik sodir etgan har to'rt nafar yoshlardan birining ota-onasi, yaqin qarindoshlari, opa yoki akasi muqaddam sudlanganligi yoki jamiyat uchun foydali mehnat bilan shug'ullanmaganligini ko'rish mumkin. Bunday holatlarda oiladagi sharoit yoshlarning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan holda, jamiyat manfaatlariga ham ziyon keltiradi. Bizga yaxshi ma'lumki, shaxs yoshligidan boshlab jinoyatchilik yo'liga kirsam, sudlansa, bu jinoyatchilikning oshishiga olib keladi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat faqat aholi o'rtasida emas, balki jamiyatda davlat boshqaruvini amalga oshirayotgan davlat tashkilotlari xodimlari o'rtasida ham yuqori darajada shakllantirilishi lozim.

Chunki, jamoat xavfsizligini ta'minlashda huquqni muhofaza qiluvchi va ijroiya organlari vakillarining huquqiy savodxonligi va qonuniy qarorlar qabul qilish madaniyati hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Ushbu maqsadlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- davlat xizmatchilari tomonidan fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash, xizmatda qonuniylik, xolislik va adolat mezonlariga amal qilishga e'tibor qaratish;

- noqonuniy qarorlar qabul qilinishi, vakolatlardan tashqari xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish uchun profilaktik tizim joriy etish;

- xodimlarning huquqiy bilimlarini baholash bo'yicha shaffof, ob'ektiv mezonlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

- davlat xizmatchilari uchun amaldagi qonunchilik va uning yangiliklari bo'yicha muntazam o'quv kurslari, simpoziumlar va interaktiv treninglar tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonligini baholash va oshirishga oid huquqiy tartiblarni belgilovchi normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali instrumentlaridan biriga aylanmoqda. Bu jarayonda faqat huquqiy bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki mas'uliyat, etika va fuqarolik jamiyati bilan muloqot madaniyatini ham shakllantirish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotimiz jarayonida Milliy gvardiya organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada "Siz xizmat qilayotgan hududda yoshlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning zaifligi nimada kuzatilmoqda?", deb so'ralganida, ularning

47,6 foizi muntazam ravishda janjal bo'lib turuvchi oilalarda, 22,4 foizi qo'ni-qo'shnilarning tinchini buzayotgan oilalarda, 18,2 foizi nosog'lom turmush tarziga ega bo'lgan oilalarda, 11,8 foizi farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir etayotgan ota-ona yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslarda deb, javob berishgan.

Tadqiqot jarayonida Milliy gvardiya organlari xodimlari o'rtasida "Qaysi omillar yoshlarda mavjud bo'lgan g'ayriijtimoiy xulq-atvorni taqozo etmoqda?" degan savolga ularning 53,8 foizi yoshlarda mavjud bo'lgan g'ayriijtimoiy xulq-atvor sabab bo'layotganligini ta'kidlashgan. Bundan tashqari, sud arxividan o'rganilgan jinoyat materiallarining 46,2 foizida yoshlar ongidagi g'ayriijtimoiy xulq-atvor ular tomonidan sodir etiladigan jinoyatchilikning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Demak, tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, oiladagi g'ayriijtimoiy xulq-atvori, nosog'lom muhitning shakllanishiga, turli nizolarning kelib chiqishiga hamda yoshlarning jinoiy olamga kirishi va tarbiyasizligiga turtki bo'lmoqda.

Yoshlarning doimiy mehnat faoliyati bilan shug'ullanmasligi ham xususan doimiy uyda bo'lish holati, oilada moddiy yetishmovchilikga olib kelishi hech kimga sir emas. Shu o'rinda, 2020-2022 yillarda 18 yoshdan – 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar tomonidan jami sodir etilgan 4,5 mingdan ortiq residiv jinoyatchilikning 1,8 mingga yaqin, ya'ni, 39,8 foizini aniq ish joyiga ega bo'lmagan yoshlar tashkil etgan. Demak, aynan shu «ishsizlik» tushunchasi jamiyatda yoshlar residiv jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi kriminogen holatlar bilan uzviy bog'liq. Chunki, aynan shu ishsizlik holati yoshlarni turli g'ayriqonuniy xatti-harakatlar qilishiga undaydi.

Bir qator olimlarning fikricha, "jinoyatchilikni sodir etgan yoshlar dunyosi" xilma-xillikda bir-biridan o'zining boyligi bilan ajralib turadi. Ularning safida kimlarni uchratmaysiz! Jinoyatchilik sodir etmasa turolmaydigan "xavfli residivist"lar o'g'rilar, bosqinchilar, bezorilar, giyohvandlar, tovlamachilar, firibgarlar, fohishalar, nazoratsiz va qarovsiz qolgan yoshlar, o'n sakkiz yoshga to'lgan lekin ishsizlik tufayli shu ishga qo'l urganlarni ko'rish mumkin.

Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan o'n sakkiz yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan shaxslarga "Bugungi kunda qaysi omillar (moddiy yoki ma'naviy) yoshlar jinoyatchiligining kelib chiqishini taqozo etmoqda?", degan savolga ularning 51,8 foizi yoshlar oiladagi moddiy yetishmovchilik va qiyinchiliklar sabab bo'layotganligini, 48,2 foizi boshqa omillar turtki bo'lganligini qayd etishgan. Zero, bu borada, professor I.Ismailov to'g'ri

ta'kidlaganidek, ishsizlikning 10 foiziga ko'payishi jinoyatchilikning 3,4-6,5 foizi o'sishiga olib keladi .

Yuqoridagi tahlillar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, jinoyatchilikni sodir etgan yoshlarning aksariyat qismini ishsizlar, oilada nosog'lom turmush-tarzi yurituvchilar, ma'lumotga ega bo'lmagan, ma'naviyati va dunyoqarashi rivojlanmaganlar tashkil etadi.

Agar oiladagi muhit sog'lom bo'lsa, unda kamol topayotgan yosh avlod qalbi va ruhiga milliy istiqlol g'oyalarini, qonun ustuvorligini singdirish uchun qulay sharoit yaratilgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://lex.uz/ru/docs/737318>
2. Жиноят ишлари бўйича Юнусобод туман суди архиви 2/104-7-сонли иш
3. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2-жилд. –Т., 2006. – Б. 38
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Т., 2017. В. 135
5. Файзиева М.Х. Оила барқарорлигига шахслараро муносабатлар таъсирининг ижтимоий-психологик хусусиятлари (эр-хотин мисолида). Псих. фан. ном. дис. ... –Т., 2005. Б. 36
6. Жиноят ишлари бўйича Самарқанд шаҳар суди архив материаллари тahlili
7. О'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Jinoiy-huquqiy statistika boshqarmasining 2019-2022 yillar bo'yicha statistik ma'lumotlari
8. Исмаилов И. Жиноятчиликда уюшганлик: назария ва амалиёт муаммолари: Монография. –Т., 2005. Б. 80.